

**UZUMNING SHO'RGACHIDAMLI NAVLARINING  
AGRABIYALOGIYASINI O'RGANISH VA YETISHTIRISH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH.**

**Ramatov B.Z.**

*Urganch davlat universiteti. Dotsent.*

**Jumanova M.Z.** Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi  
*bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik  
ilmiy-tadqiqot instituti 1-bosqich daktoranti.*

Tok qimmatbaho ekin hisoblanadi. Uzum mevasi tarkibida 15–30% hatto so'litilganda esa 40-50 % gacha shakar, organik kislotalar, pektin, oshlovchi moddalar, xushbo'y hidli va bo'yoq moddalar, o'simlik yelimi, bir qancha fermentlar, A, V<sub>1</sub>, V<sub>2</sub>, S vitaminlar va mineral tuzlar bo'ladi. Uzumdan har xil maqsadlar uchun foydalaniladi. Uzum yangiligicha ko'p ishlatiladi, undan iyun oyidan boshlab noyabrgacha daladan uzib ishlatiladi. Saqlashga qulay bo'lgan navlarini esa maxsus xona va muzxonalarda kelgusi yilning may oyigacha saqlash mumkin.

Dunyo miqyosida uzumning quritilgan kishmish navlari yalpi ishlab chiqarilishi bo'yicha barcha quritilgan mevalar orasida birinchi o'rinda turadi. Bugungi kunda dunyoda kishmish-mayiz ishlab chiqarish bo'yicha Turkiya (353,2 ming tonna), AQSh (332,8 ming tonna), Eron (122,6 ming tonna), Gretsiya (72,9 ming tonna) va Chili (51,1 ming tonna) yetakchilik qilib kelmoqda. Ushbu mamlakatlarda uzum hosildorligini oshirish, uning yirik g'ujumli, bugungi kun bozor va eksport talablariga javob beradigan yangi navlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarida uzumning yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli yangi nav va duragaylarini yaratish va yetishtirishning maqbul agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Uzumning yaratilgan yangi nav va duragaylarining agrotexnik tadbirlarini takomillashtirish orqali hosildorlikni yanada oshirishga, respublikaning kishmish-mayiz eksporti salohiyatini yanada oshirishga erishish mumkin. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Ilk bor Xorazm viloyat sharoitida xo'raki kishmishbop sharobbop uzum navlarini keng miqdorda sho'rga chidamli navlarni tanlash.

Xorazm viloyati sharoitida tanlab olingan sho'rga chidamli navlarning agrobiyologiyasi, o'g'itlash va suvga bo'lgan talabini ilmiy asoslash

Tadqiqot 2023-2025 yillar mobaynida Xorazm viloyati Urganch tumanidagi M.Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba dalalarida olib borilmoqda.

Tajribalar o‘tkazish davrida viloyat hududining o‘rtacha oylik xarorati va nisbiy namligi 2.2-jadvalda keltirilgan bo‘lib, unda o‘rtacha oylik harorat ekin o‘stirish davrida 20,4-29,0°S darajani tashkil etgan.

Tadqiqot yillarida havoning harorati va nisbiy namligi (2022 yy.)

Ko‘rsatkich- lar	Oylar											
	I	II	III	IV	V	IV	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Havoning harorati, t°C	3,0	2,5	7,3	14,5	23,0	26,9	29,0	26,0	20,4	9,5	10,4	0,4
Nisbiy namlik, %	64,7	54,1	47,9	38,2	35,5	31,8	32,7	33,7	38,2	47,0	52,1	60,4
Yog‘in, mm	7,4	10,8	18,0	16,2	9,1	4,3	2,0	1,1	2,2	4,5	10,1	11,7

Xorazm viloyatida sug‘orish suvlari bo‘lmasa dehqonchilik qilib bo‘lmaydi. O‘rtacha yillik yog‘in 80-110 mm ni tashkil qiladi. Bug‘lanish esa yog‘in miqdoridan 18-19 marta yuqori. Yog‘inning 40% bahor fasliga, 20-25% kuzga, 30-35% qishga, atigi 10% yozga to‘g‘ri keladi. Iyul, avgust, sentyabr, oylarida o‘rta oyluk yog‘in miqdori 2 mm ga to‘g‘ri keladi. Eng ko‘p yog‘in mart oyida (20-25 mm) yog‘adi

Tekshirish natijalari shuni korsatdiki Sho‘rlanish darajasi 0 – 30 sm qatlamda 1,43 g/kg ga teng bo‘lib, 48 – 150 sm qatlamda 0,74 g/kg ekanligi aniqlandi.

Tajribalar tizimiga binoan rejalashtirilib, maydonga qoziqchalar qoqildi va quyidagi navlar ekildi

- 1- Toyfi
- 2- Gigant
- 3- Avatar
- 4- Oq damski
- 5- Qora damski
- 6- Xusayni
- 7- Xirmoni
- 8- Oq maska
- 9- Qora maska
- 10- Rizamat
- 11- Shaxanak
- 12- Helovin

Tajribada har bir navdan 20 tadan 2 yillik ko‘chatlar ekildi

Olib kelingan uzum ko'chatlarining o'lchamlari (jadval)

No	Uzum ko'chatlari navlari nomi	Ko'chatning umumiy bo'yi (sm)	Asosiy tana uzunligi (sm)	Shoxlarining soni	Ildizining uzunligi (sm)
1	Toyfi	73	25	3	40
2	Gigant	80	30	4	50
3	Avatar	70	20	3	25
4	Oq damski	86	30	4	45
5	Qora damski	86	25	3	30
6	Xusayni	90	30	4	40
7	Xirmoni	70	25	3	40
8	Oq maska	71	28	3	31
9	Qora maska	80	30	5	35
10	Rizamat	90	30	4	35
11	Shaxanak	85	30	4	35
12	Xelloven	85	27	3	40

Bunda ko'chatlarning 4 ta ko'rstatgichi bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak uzum ko'chatlarida umumiy bo'yi bo'yicha Rizamat va xusayni eng baland, avatar xirmoni va oq maska past b'ylili ko'chat bo'ldi. Shoxlar soni deyarli bir biridan katta farq qilmadi. Ildiz uzunligiga kelsak navlar orasidan eng uzun ildiz gigant navida ko'rishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Temurov Sh.S. Uzumchilik. O'zME nashriyoti. T., 2002, 2004.
2. Temurov Sh.S. Uzumchilikda ma'ruza matnlari T., 2002, 2004.
3. Uzum etishtirish va mayiz quritishning zamonaviy texnologiyasi. R.M. Abdullaev, M.M.Mirzaev, U.YA.Nabiev, SH.M.Abrorov, U.A.Bekchanov, G'.G'.Mahmudov. T. 2013.
4. Ostonaqulov T.E., Narziyeva S.X., Hamdamova E.I. Uzumchilik (Ma'ruzalar kursi). Samarqand 2006 y.
5. S.Islamov, K.Sultonov. Uzumchilik, O'quv qo'llanma TOSHKENT-2020Y

### Internet saytlari

1. <http://www.bfpais.ru> Plodovodstvo i vinogradarstvo
2. [http://asiaxx.narod.ru/map\\_admin.htm](http://asiaxx.narod.ru/map_admin.htm) Sayt o plodovodstvo, vinogradarstvo, baxchevodstvo Kazaxstana, Kirgizii, Tadjikistana, Turkmenii i Uzbekistana